



## BOLALAR HAYOTIDA ERKALAMALARNING O'RNI WORD

Mamadaliyeva Mamlakat Qahramon qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6465343>

**Annotatsiya:** Maqolada bolalar hayotida erkalamalar muhim o'rin tutishi haqida so'z boradi. Erkalamalardan namunalar keltiriladi

**Kalit so'zlar:** bolalar, erkalamalar, ofarin, mehr-muhabbat, ota-onalar.

**Аннотация:** В статье рассматривается важная роль баловства в жизни детей. Образцы даны от баловства.

**Ключевые слова :** дети, ласки, ofarin, привязанность, родители.

**Annotation:** The article discusses the important role of pampering in children's lives. Samples are given from pampering.

**Keywords:** children, petting, ofarin, affection, parents

Bizga doim shirin xotiralarimizni, xushnud damlarimizni eslatib turuvchi bolalar hayotimizga rangin nurlar berib turadi. Ularga boqar ekanmiz, beg'ubor ko'zlarda sof muhabbatni, hech qayerda uchrata olmaydigan samimiyatni ko'ra olamiz. Shunday ekan ularni erkalagimiz kelaveradi. Erkalamalar jajji farzandlarimiz uchun g'oyat muhimdir. Sababi bolalar bizdan doim mehr-muhabbat berishimizni xohlashadi. Ularga dil izhorimizni

erkalamalar orqali aytar ekanmiz, qalbimizdagi eng qaynoq so'zlarimiz otilib chiqishi aniq. Ko'pincha erkalamalar she'riy tarzda bo'ladi.

“Mani qizim oppoqqina,

Boshida zar qalpoqqina.

Kimlar shuni ko'rolmasa,

Ko'ziga sho'r tuproqqina” [1,391]

Ushbu erkalamada go'zal, oppoqqina qizaloq erkalanyapti.

“Sher bo'ladi o'g'limiz,

Er bo'ladi o'g'limiz.

Ko'p bo'ladi o'g'limiz,

Xo'p bo'ladi o'g'limiz.

Dehqon bo'lsin o'g'limiz,

Polvon bo'lsin o'g'limiz!" [1,392]

Bu erkalamada ota-onaning orzu-istaklari berilgan desak ham bo'ladi.

Ular o'g'illarini chinakam inson bo'lishini xohlashadi va bu niyatlarini she'riy tarzda chin muhabbat bilan izhor etishyapti.

Umuman olganda, erkalamalar bolalarimizga quvonch baxsh etib turadi va ularni yaxshi ko'rishimizni bildirib turadi. Ba'zi erkalamalarimizda to'y mavzusi yetakchilik qiladi. Sababi har bir inson uchun farzandlarining to'yini ko'rish haqiqiy baxt hisoblanadi.

"Hayyo-huyalar bo'lsin-e,  
Shugina to'ylar bo'lsin-e!

Shuginaning to'ylarida

Jumla-jahon o'ynasin-e!

Ammalari tanga sepib,

Hoy, barakalla desin-e!" [1,391]

Ushbu misralardan o'zbekning naqadar bolajon ekanligi, to'y ko'rish orzusi xuddi qo'shiqdek yangraydi.

Erkalamalar ota-onalarning cheksiz muhabbat namunalaridir.

" Erkalamalar xalqning o'z farzandlariga beqiyos mehr tovlanishlarini aks ettiradi. Ularda

xalqimizning bolaparvar siymosi nurlanib turadi:

O...shugina,shuginagina,

Munchagina,tunchagina,

Kunchagina,shunchagina,

Yashnab turgan g'unchagina.

Mehr xuruji ona qalbini tug'yonga keltirganidan u shu so'zlar tizimi ritmida arzandasini

ardoqlash,erkalash ohangini chuqur tuygan" [2,340]

Ba'zi erkalamalar an'anaviy satrlar bilan boshlanadi.

" Erkalamalarning "Ha,lo'tti-lo'tti", "Ha,do'rsa,do'rsa,do'rsa", "Ha,ki shta-kishta,kishta" singari taqlidiy va so'qma so'zlar tizimidan to'qilgan an'anaviy satrlar bilan boshlanuvchi butun bir turkumi borki, faqat 2-3 yashar bolalarga mo'ljallangan. Buning sababi shu yoshdagi bolalar vazning yengilligi, binobarin,ularni havolata-havolata,ko'tarib tushirish o'ngg'ay.Erkalama ham xuddi shu harakat ravishiga mutanosib ohangda shovqin solinib aytiladi:

Ha, do'rsa-do'rsa, do'rsa...

Otasi bozorga borsa,

Go'sht-u birinch keltirsa,

Onasi pazanda bo'lsa,

Bolasi xo'randa bo'lsa..." [2,340]

Erkalamalar bolalarning yoshiga qarab, kengayib boraveradi. Ota-ona uchun farzandi necha yoshga kirishidan qat'iy nazar bola bo'lib qolaveradi. Erkalatishlar ham davom etaveradi.

“ Erkalamalarda kichkintoylar kelajagiga daxldor orzularni kuylash yetakchi motivdir. Ular, asosan, yetti yoshgach bo'lgan bolalarga aytilsada, aslida bolalarni erkalash jarayoni 11-13 yoshga to'lganlarigacha va hatto undan keyin ham davom etishi mumkin. Biroq bu davrda erkalash poetik shaklda kechmay, maqtash, xatti-harakatni ma'qullash va unga minnatdorchilik izhoridan iborat obrazli iboralar ( “ Yasha!”, “ Balli!”, “Ofarin!”, “ Rahmat!” va h.k”) vositasida amalga oshadi. Umuman, erkalamalar bolalarda samimiyluk tuyg'usini tarbiyalaydi.” [2,340]

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, biz butun hayotimizni bag'ishlayotgan suyuqlik farzandlarimiz biz uchun doim qadrli. Hayotimiz doimo bolalarimizni erkalatishdan iborat emas. Ba'zan sho'xliklari to'lib ketganda, koyib ham beramiz. Tarixga nazar tashlasak,

onalarimiz, buvilarimiz qanchalik dono bo'lishganiga guvoh bo'lamiz. Boisi ular bolalari juda qiynab yuborishganda : “ Ha, uyingga don to'lgur”, “ Umring uzoq bo'lgur-ey”, “ Og'zingga palov”, “ Burning yerga tekur” kabi iboralardan foydalanishgan. Bu iboralar jahllari chiqqan paytda ham onalarimizni duoga chorlaydigan fikrlardir. Aynan shuning uchun ham bizning yurtimiz buyuk insonlarga, allomalarga, ilm fidoiylariga boy yurtdir.

Allohim har bir insonga farzand ne'matini berar ekan, ular dunyodagi eng baxtli insonlar. Sababi endi ularda erkalaydigan farzand, ularning davomchilari bor. Jajji chaqalog'imizni bag'rimizga olgan ilk kundanoq erkalamalar hayotimizga kirib keladi va ular farzandimizni katta qilgunimizcha bizga beminnat yordamchi bo'lishadi. Bugungi kundagi zamonaviy onalarimiz farzandlarini : “ Aqllilarim”, “ Shirinim”, “ Yonar ko'zlarim”, “ Mehribonim”, “ Ko'zlarim quvonchi”, “ Oy yuzligim”, “ Jajji malagim”, “ Chempionim”, “ Oppoqqinam”, “ Xudobergan ovunchog'im meni”, “ Alloh bergan ne'matim”, “ Jajjiginam” kabi

so'zlar bilan erkalashadi. Bir so'z bilan istaklarini amalga oshiruvchi , mehr-aytganda, erkalamalar ota-muhabbat bilan aytiladigan qalb onalar,bobo-buvilarning orzu-tug'yonlaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mirzayev T., Safarov O.,O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi.- Toshkent: Aloqachi,2008.- 560 b
- 2.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi.-Toshkent: Musiqa, 2010.-368 b